O‘ZBEK TILIDAGI GRAMMATIK O‘ZLASHMALARDA SHAKL VA MAZMUN ASSIMETRIYASI

Qodirova Dilfuza G‘opirjon qizi
NamDU o‘qituvchisi
E-mail: qodirovadilfuza3313@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda o‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalar natijasida yuzaga keladigan shakl va mazmun assimetriyasi masalasi tahlil qilinadi. Til kontaktlari jarayonida o‘zlashgan grammatik birliklarning qabul qiluvchi til tizimiga integratsiyalashuvi davomida ularning shakliy va mazmuniy xususiyatlarida sodir bo‘ladigan transformatsiyalar yoritiladi. Arab, fors-tojik, rus va ingliz tillari ta’sirida shakllangan grammatik birliklar misolida grammatik o‘zlashmalarning morfologik va semantik o‘zgarish mexanizmlari tavsiflanadi. Tadqiqot natijasida grammatik o‘zlashmalar shakl va mazmun munosabatlarining qayta tashkil topishiga olib keluvchi muhim omillardan biri ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *grammatik o‘zlashma, assimetriya, shakl, mazmun, grammatiklashuv, morfologik integratsiya, til kontaktlari, morfologik nomutanosiblik.*

Til tizimi shakl va mazmunning uzviy birligiga asoslanadi. Har qanday lisoniy birlik muayyan shakl va mazmunning o‘zaro munosabati natijasida vujudga keladi. Biroq til taraqqiyoti davomida ushbu munosabat doimo mutanosib holatda saqlanib qolmaydi. Lisoniy birliklarning tarixiy rivojlanishi, funksional kengayishi yoki boshqa tillar bilan yuzaga kelgan kontaktlar natijasida shakl va mazmun o‘rtasidagi dastlabki muvozanat buziladi. Natijada til tizimida assimetriya, ya’ni shakl va mazmun nomutanosibligi yuzaga keladi.

Til belgisi tabiatidagi ushbu hodisa V. fon Gumboldt, F. de Sossyur, S. Kartsevskiy va A. Martine kabi olimlar tomonidan turli jihatdan tadqiq etilgan. Ayniqsa, S. Kartsevskiy til taraqqiyoti jarayonida ifodalovchi va ifodalanuvchi o‘rtasidagi munosabatning dinamik xarakterga ega ekanligini ta’kidlab, til tizimida mutlaq simmetriya mavjud emasligini ko‘rsatgan[7. b; 85]. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda esa shakl va mazmun assimetriyasi til taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbek tilshunosligida morfologik tizim taraqqiyotida shakl va mazmun munosabatlarining o‘zgarishi masalasi keyingi yillarda alohida ilmiy e’tibor qozondi. Morfologik birliklarning tarixiy rivojlanishi, yangi morfemalarning paydo bo‘lishi, affiksoidlarning shakllanishi hamda funksional transpozitsiya hodisalari natijasida morfologik tizimda turli ko‘rinishdagi nomutanosibliklar yuzaga kelishi kuzatiladi. Ayniqsa, boshqa tillardan kirib kelgan grammatik birliklarning qabul qiluvchi til tizimiga moslashuvi jarayonida shakl va mazmun munosabatlarining qayta tashkil topishi morfologik assimetriyaning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Grammatik o‘zlashmalar til kontaktlarining eng murakkab natijalaridan biri sanaladi. Chunki grammatik birliklar leksik birliklarga nisbatan til tizimining ichki qurilishiga chuqurroq ta’sir ko‘rsatadi. Tilga kirib kelgan grammatik vosita yoki

grammatik model qabul qiluvchi til tizimiga moslashar ekan, uning dastlabki funksional xususiyatlari ma’lum darajada o‘zgaradi. Natijada manba tilidagi shakl va mazmun munosabati bilan qabul qiluvchi til tizimidagi shakl va mazmun munosabati o‘rtasida tafovut yuzaga keladi.

O‘zbek tilidagi grammatik o‘zlashmalarni shakl va mazmun munosabati nuqtayi nazaridan tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashgan morfemalar qabul qiluvchi til tizimiga tayyor grammatik unsur sifatida emas, balki bosqichma-bosqich moslashuvchi birlik sifatida kiradi. Bunda dastlab morfema boshqa tilga mansub tayyor leksema tarkibida qo‘llanadi, keyinchalik esa til egalarining lisoniy tajribasida ajraluvchan derivatsion vosita sifatida idrok qilina boshlaydi. Natijada uning tarixiy manbasi, dastlabki ma’nosi va zamonaviy funksiyasi o‘rtasida muayyan nomutanosiblik yuzaga keladi[4, B;80].

Bu holat, avvalo, fors-tojik tilidan o‘zlashgan *be-, no-, ser-, xush-* kabi prefiksoid birliklar misolida kuzatiladi. Masalan, *be-* elementi befoyda, beg‘am, bevafo, befarq kabi birliklarda inkor yoki mavjud emaslik ma’nosini bildiradi. Biroq o‘zbek tilida u faqat tayyor forsiy birliklar tarkibida qolib ketmagan, balki ma’lum sifat yasovchi model sifatida ham anglashila boshlagan. Bu yerda shakl o‘z manbasini saqlagan, mazmun esa o‘zbek tilining sifat yasash tizimida umumlashgan. Xuddi shuningdek, *no-* elementi noo‘rin, noma’lum, noqulay, nojo‘ya kabi so‘zlarda inkoriy-baholovchi ma’no hosil qiladi. Bu ikki birlik bir-biriga yaqin inkor semasiga ega bo‘lsa-da, o‘zbek tilida ularning uslubiy va semantik taqsimoti farqlanadi: *be-* ko‘proq holat yoki xususiyatning yo‘qligini bildirsa, *no-* ko‘pincha me’yor, muvofiqlik yoki ijobiy bahoga zidlikni ifodalaydi. Demak, shaklan boshqa tillardan kirgan birliklar o‘zbek tilida yangi semantik chegaralanishga ega bo‘lgan.

Shakl va mazmun assimetriyasining yana bir muhim ko‘rinishi *ser-* elementi orqali namoyon bo‘ladi. Serhosil, sermazmun, sershovqin, serqatnov kabi birliklarda ushbu morfema “ko‘plik”, “mo‘llik”, “yuqori daraja” ma’nolarini ifodalaydi. Biroq bu yerda oddiy miqdoriy ma’no emas, balki baholovchi sema ham yuzaga chiqadi. Masalan, serhosil so‘zida ijobiy, sershovqin so‘zida esa ko‘pincha salbiy baho mavjud. Demak, bir xil shakl turli kontekstlarda turlicha mazmuniy yo‘nalish kasb etadi. Bu esa o‘zlashgan grammatik birlikning qabul qiluvchi til tizimida semantik jihatdan qayta taqsimlanganini ko‘rsatadi.

Fors-tojik manbali *-kash, -kor, -paz, -soz, -tarosh, -furush* kabi morfemalarda esa shakl va mazmun munosabatining kasb-hunar, faoliyat va ixtisoslik semalari bilan bog‘liq qayta tashkil topganini ko‘ramiz. Masalan, mehnatkash, qalamkash so‘zlaridagi *-kash* elementi dastlab harakat bajaruvchi shaxs ma’nosiga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida ayrim hollarda ijtimoiy-baholovchi ma’no ham oladi. Mehnatkash so‘zi faqat “mehnat qiluvchi” emas, balki “halol mehnat bilan yashovchi qatlam vakili” mazmunini ham anglatadi. Shuningdek, paxtakor, binokor birliklaridagi *-kor* morfemasi faoliyat egasini bildiradi, biroq zamonaviy o‘zbek tilida u faqat shaxs otlari yasash bilan cheklanmay, ijtimoiy-professional identifikatsiyani ham ifodalaydi. Bu jarayonda tarixiy shakl saqlangan, ammo mazmun ijtimoiy va funksional jihatdan kengaygan.

-paz, -soz, -tarosh, -furush morfemalari ham o‘zbek tilida muayyan faoliyatni bildiruvchi derivatsion modelga aylangan. Oshpaz, somsapaz birliklarida *-paz* taom

tayyorlovchi shaxsni bildirsa, mashinasoz, soatsoz birliklaridagi *-soz* yasash, tuzatish yoki ishlab chiqarish bilan bog‘liq faoliyat egasini ifodalaydi. Qalamtarosh, haykaltarosh birliklarida -tarosh shaklan bir xil bo‘lsa-da, mazmun jihatidan predmetga ishlov berish, shakl berish, yaratish kabi turli semantik qirralarni namoyon qiladi. Olchafurush, gulfurush birliklarida esa *-furush* sotuvchi shaxs ma’nosini beradi. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashgan morfemalar qabul qiluvchi tilga kirgach, birgina grammatik ma’no bilan chegaralanmay, turli kasbiy, ijtimoiy va uslubiy ma’no qatlamlarini hosil qiladi [5. B;56].

Grammatik o‘zlashmalardagi assimetriyaning yana bir kuchli ko‘rinishi *-parast* va *-parvar* morfemalari orqali ifodalanadi. Shuhratparast, mansabparast birliklarida -parast ko‘pincha salbiy baholovchi ma’no hosil qiladi. Aksincha, xalqparvar, ma’rifatparvar, vatanparvar birliklaridagi *-parvar* ijobiy ijtimoiy-baholovchi semani yuzaga chiqaradi. Har ikkala morfema tarixan “moyillik”, “berilish”, “tarafdorlik” semasi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zbek tilida ular baholash jihatidan qarama-qarshi qutblarga taqsimlangan: *-parast* salbiy, *-parvar* esa ijobiy semantik maydonga yaqinlashgan. Bu holat shakl va mazmun munosabatining qabul qiluvchi til ichida qayta differensiatsiyalanganini ko‘rsatadi.

-xo‘r, -xon, -shunos morfemalari ham o‘zlashgan birliklarning semantik kengayishi va funksional moslashuvini ko‘rsatadi. Poraxo‘r, choyxo‘r birliklaridagi *-xo‘r* dastlab iste’mol qilish yoki biror narsani qabul qilish bilan bog‘liq ma’noni ifodalasa, poraxo‘r so‘zida u salbiy ijtimoiy-huquqiy bahoga ega bo‘lgan shaxs nomini hosil qiladi. Kitobxon, gazetxon kabi birliklarda *-xon* o‘quvchi yoki mutolaa qiluvchi shaxsni bildiradi, biroq mushtumxon tipidagi birliklarda u ma’lum matn yoki nashr bilan bog‘langan ijtimoiy-madaniy subyektni ham anglatadi. Tilshunos, huquqshunos, adabiyotshunos birliklaridagi -shunos esa “biluvchi”, “tadqiq qiluvchi”, “mutaxassis” ma’nolarini umumlashtirib, ilmiy-professional identifikatsiya vositasiga aylangan. Bu misollar o‘zlashgan morfemalarning o‘zbek tilida aniq derivatsion vazifa kasb etganini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘zga tillardan o‘zlashgan morfemalar, asosan, so‘z yasovchi morfemalarda kuzatilishi, shakl yasovchilarning esa odatda o‘zlashmasligi, o‘zlashgan taqdirda ham so‘z tarkibida qotib qolishi qayd etiladi. Olcha, olacha, darbadar, namoyish, namoyanda, peshona, loyiha kabi birliklarda tashqi ko‘rinish jihatidan ajraluvchi qismlar mavjuddek ko‘rinsa-da, ular zamonaviy o‘zbek tilida erkin so‘z yasovchi morfema sifatida faoliyat ko‘rsatmaydi. Demak, bu birliklarda morfologik shakl saqlangan, ammo grammatik ajraluvchanlik yo‘qolgan. Bu esa assimetriyaning boshqa bir ko‘rinishi tarixiy morfemik tarkib bilan sinxron morfologik idrok o‘rtasidagi nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Shu asosda grammatik o‘zlashmalarda shakl va mazmun assimetriyasining quyidagi ko‘rinishlarini ajratish mumkin: birinchidan, shakl saqlanib, mazmun umumlashadi: *ser-, be-, no-, xush-*; ikkinchidan, tarixiy leksik ma’no zaiflashib, derivatsion funksiya kuchayadi: *-kash, -kor, -paz, -soz, -furush*; uchinchidan, bir-biriga yaqin semali morfemalar qabul qiluvchi tilda baholash jihatidan farqlanadi: *-parast* va *-parvar*; to‘rtinchidan, tarixiy tarkib saqlangan bo‘lsa-da, sinxron tahlilda morfemik ajraluvchanlik yo‘qoladi: darbadar, namoyish, peshona, loyiha kabi birliklar.

Ushbu misollar grammatik o‘zlashmalarning o‘zbek tiliga mexanik ravishda o‘tmasligini, balki qabul qiluvchi tilning ichki qonuniyatlari asosida qayta semantiklashishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, grammatik o‘zlashmalarda shakl va mazmun assimetriyasi uch asosiy jarayon orqali yuzaga chiqadi: semantik umumlashuv, funksional qayta taqsimlanish va morfemik ajraluvchanlikning kuchayishi yoki susayishi. Bu jarayonlar o‘zlashgan grammatik birliklarning o‘zbek tili morfologik tizimida yangi maqom kasb etishiga xizmat qiladi[3. b; 56].

O‘zbek tili materiallari grammatik o‘zlashmalar natijasida yuzaga keladigan assimetriyaning bir necha ko‘rinishlarini kuzatish imkonini beradi. Ularning birinchi turi shaklning saqlanib, mazmunning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Masalan, arab tilidan o‘zlashgan -iy elementi dastlab arab tilida nisbat ma’nosini ifodalovchi grammatik vosita bo‘lgan. O‘zbek tilida esa u tarixiy manbasidagi semantik chegaralardan chiqib, ilmiy, adabiy, ijtimoiy, siyosiy kabi birliklar tarkibida umumlashgan sifat yasovchi vosita sifatida faol qo‘llanmoqda. Bunda shakl saqlangan bo‘lsa-da, uning funksional va semantik imkoniyatlari kengaygan.

Assimetriyaning ikkinchi turi mazmunning saqlanib, shaklning o‘zgarishi bilan xarakterlanadi[2. b; 25]. Til kontaktlari natijasida ayrim grammatik ma’nolarni ifodalash vositalari almashadi yoki yangi shakllar orqali ifodalanadi. Xususan, rus tili ta’sirida shakllangan ayrim sintaktik konstruksiyalar o‘zbek tilida milliy grammatik vositalar bilan ifodalansa-da, ular saqlab qolgan grammatik ma’no kontakt natijasida yuzaga kelgan model bilan bog‘liq bo‘lib qoladi.

Assimetriyaning uchinchi turi shakl va mazmunning bir vaqtning o‘zida transformatsiyaga uchrashi bilan bog‘liq. Bunday holatda o‘zlashgan grammatik birlik qabul qiluvchi til tizimida yangi funksional maqom kasb etadi. Masalan, fors-tojik tilidan kirib kelgan ayrim derivatsion vositalar dastlab muayyan leksik birlik tarkibida qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik mustaqil derivatsion vositaga aylanib, yangi grammatik va semantik imkoniyatlarga ega bo‘lgan.

Tahlillar grammatik o‘zlashmalar natijasida yuzaga keladigan assimetriya tasodifiy hodisa emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, bu jarayon grammatik birlikning qabul qiluvchi til tizimiga moslashuvi va funksional integratsiyasi bilan bog‘liq qonuniy hodisadir. Integratsiya davomida o‘zlashgan birlik dastlabki semantik xususiyatlarining bir qismini yo‘qotadi, yangi funksional vazifalarni o‘zlashtiradi va natijada shakl hamda mazmun o‘rtasidagi munosabat qayta tashkil topadi.

Shu nuqtayi nazardan grammatik o‘zlashmalardagi assimetriyani quyidagi model asosida tavsiflash mumkin:

Grammatik o‘zlashma → Morfologik moslashuv → Semantik transformatsiya → Shakl–mazmun assimetriyasi → Funksional integratsiya[2. b;118].

Mazkur model grammatik o‘zlashmalarning qabul qiluvchi til tizimiga singib borish mexanizmlarini izohlash imkonini beradi. Modeldan ko‘rinadiki, assimetriya grammatik o‘zlashmalarning yakuniy natijasi emas, balki integratsiya jarayonining markaziy bosqichi hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘zlashgan birlik yangi grammatik imkoniyatlarga ega bo‘lib, qabul qiluvchi til tizimining tarkibiy qismiga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, grammatik o‘zlashmalar o‘zbek tili morfologik tizimining boyishida muhim rol o‘ynaydi. Ularning integratsiyasi jarayonida shakl va mazmun

munosabatlari qayta tashkil topib, turli ko‘rinishdagi assimetriyalar yuzaga keladi. Ushbu hodisa grammatik o‘zlashmalarning qabul qiluvchi til tizimidagi funksional taraqqiyotini hamda morfologik tizimning dinamik xarakterini ko‘rsatuvchi muhim lingvistik omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Heine B., Kuteva T. Language Contact and Grammatical Change. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 118 b.
2. Johanson L. Structural Factors in Turkic Language Contacts. – Richmond: Curzon Press, 2002. – 325 p.
3. Matras Y. Language Contact. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 366 p.
4. Tojiyev Y. O‘zbek tili morfemikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 184 b.
5. Uralov A. O‘zbek tili morfologiyasida nomutanosiblik. – Guliston: Ziyo nashr matbaa, 2022. – 224 b.
6. Weinreich U. Languages in Contact: Findings and Problems. – New York: Linguistic Circle of New York, 1953. – 148 p.
7. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // Вопросы языкознания. – 1965. – № 1. – С. 85–90.